

- 1.** Qaysi fan kichik hududlar tabiatining tuzilishi va xususiyatlarini tadqiq qiladi?
- A) Geokriologiya
 - B) Landshaftshunoslik
 - C) Umumiy tabiiy geografiya
 - D) Geoekologiya

- 2.** Topografik xaritalarda 1:1 000 000 mashtabli xaritaning har bir varag'i necha gradusdan o'tkazilgan parallellar bilan chegaralanadi?
- A) 4°
 - B) 10°
 - C) 6°
 - D) 8°

- 3.** Iqlim hosil qiluvchi qaysi omil harorat, bosim, havo massalari va doimiy shamollarning zonal tarqalishiga olib keladi?
- A) geografik kenglik
 - B) atmosfera bosimi
 - C) yerusti tuzilishi
 - D) havo massalari

- 4. Matnni o'qing.**
“Savannalar zonasasi subekvatorial iqlim mintaqalari hududidagi pasttekisliklarda, yassi tog'liklarda tarkib topgan. Bu zonada sernam savanna o'rmonlari, quruq savanna, cho'lga aylangan savanna, siyrak o'rmonli savanna va butazorli savanna tabiat komplekslari mavjud”.
- Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.**

- A) Afrika
- B) Janubiy Amerika
- C) Yevroсиyo
- D) Shimoliy Amerika

- 5.** Deyvis dengizi qaysi okeanda joylashgan?
- A) Tinch
 - B) Atlantika
 - C) Hind
 - D) Shimoliy Muz

- 6. Matnni o'qing.**
Ushbu okean tabiatini kompleks o'rganish XIX asrning oxiridan boshlanadi. “Chellenjer” kemasidagi ingliz ekspeditsiyasi, Xalqaro geofizika yilidagi (1957–1958) tadqiqotlar, Jak Iv Kusto ekspeditsiyasi davrida okean hayotiga va tabiat komponentlariga taalluqli juda ko'p ma'lumot to'plandi. **Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi okeanga oid ekanligini aniqlang.**
- A) Hind
 - B) Tinch
 - C) Atlantika

- D) Shimoliy Muz

- 7.** Yevrosiyoning qaysi tabiat zonasida sur-qo'ng'ir va qora tuproqlar tarqalgan?
- A) o'rmon-dasht va dasht
 - B) chalacho'l
 - C) keng bargli o'rmonlar
 - D) aralash o'rmonlar

- 8. Matnni o'qing.**
“Materikdagi kelgindi aholi yevropaliklar avlodlaridir, asosiy qismi inglizlar — ingliz tilida so'zlashuvchilardan iborat. Materik boshqa aholi yashaydigan materiklardan aholi zichligining kichikligi bilan ajralib turadi. Aholining ko'p qismi materikning yashash uchun qulay bo'lgan sharqiylar, janubi-sharqiylar va janubi-g'arbiy chekkalarida to'plangan”.

Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi materikka oid ekanligini toping.

- A) Janubiy Amerika
- B) Afrika
- C) Astraliya
- D) Shimoliy Amerika

- 9.** Quyidagi orollarning qaysi biri g'arbiy yarimsharda joylashgan?
- A) Vozneseniya
 - B) Azor
 - C) Sant Yelena
 - D) Shpitsbergen

- 10.** Shimoliy Amerika materigiga oid to'g'ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.
- A) Cho'kindi jinslar bag'rida fosforit, osh tuzi, toshko'mir va qo'ng'ir ko'mir, neft, tabiiy gaz tarkib topgan. Materik temir va rangli metallar hamda uran zaxiralari bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinda turadi. Ko'pgina qazilma boyliklar yer yuzasiga yaqin joylashgan.
 - B) Qadimgi Gondvana quruqligining bir bo'lagi. Materik, asosan, qadimgi platforma ustida joylashgan bo'lib, ko'proq tekislik va yassi tog'liklardan iborat. Seysmik hududlar nisbatan kam.
 - C) Tog'lari kaledon, gersin, mezozoy tog' burmalanishlarida ko'tarilgan. Lekin alp burmalanishida yoshargan. Tekisliklarda, asosan, cho'kindi tog' jinslari uchrasa, tog'li o'lkalarda magmatik va metamorfik tog' jinslari tarkib topgan.
 - D) Tektonik harakatlar ta'sirida platformaning cho'kkani joylarida botiqlar va ko'tarilgan qismlarida yassitog'liklar tarkib topgan. Yassitog'liklarda lava — vulqon yotqiziqlari ko'p uchraydi.

11. 22-iyunda quyoshning gorizontdan balandligi quyidagi shaharlardan qaysi birida eng balandda bo‘ladi?

- A) Toshkent
- B) Ashxobod
- C) Chimkent
- D) Nukus

12. Matnni o‘qing.

“Okrugda yog‘in kam tushadi, uning o‘rtacha yillik miqdori 100—120 mm. Yog‘inni, asosan, g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy havo massalari olib keladi. Eng ko‘p yog‘in bahorga, eng kami qishga to‘g‘ri keladi. Qor juda kam yog‘ib, izg‘irinli shamollar uni uchirib ketishi natijasida yer yuzasi muzlaydi”.

Matndagi ma’lumotlar qaysi okrugga tegishli ekanligini toping.

- A) Quyi Amudaryo
- B) Ustyurt
- C) Qizilqum
- D) Orol

13. Mezozoy erasida Chirchiq va Ohangaron daryosi vodiylarida qanday hodisa ro‘y bergen?

- A) dengiz qoplagan
- B) o‘rmonlar asta-sekin yo‘qola boshlagan
- C) tog‘lar yemirila boshlagan
- D) neotektonik jarayonlar faollashgan

14. “Okrugning 1500—2500 m dan balandda bo‘lgan tog‘ yonbag‘irlarida tog‘-jigarrang tuproqlar tarqalgan bo‘lib, tarkibidagi chirindi 4—6 foizga boradi. 2500 m dan yuqorida yaylov mintaqasi boshlanib, tog‘-o‘tloq, o‘tloq, o‘tloq-botqoq tuproq uchraydi”. Ushbu ta’rif mamlakatimizdagi qaysi tabiiy geografik okrugga tegishli?

- A) Qashqadaryo
- B) O‘rta Zarafshon
- C) Chirchiq-Ohangaron
- D) Surxondaryo

15. Quyi Zarafshon tabiiy geografik okrugiga oid ma’lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Okrugda yog‘inlar notekis taqsimlangan. Okrugning janubidagi tekisliklarga eng kam yog‘in (yiliga 133—230 mm) tushadi. Lekin tog‘ yonbag‘irlari bo‘ylab ko‘tarilgach, yog‘in miqdori ortib, 500—600 mm ga yetadi. Yillik yog‘inning ko‘p qismi qishda (46—48 foiz) va bahorda (43—44 foiz) yog‘adi. Kuz oyalariga yillik yog‘inning 8—10 foizi, yozga esa atigi 1—2 foizi to‘g‘ri keladi.
- B) Okrugda sovuq bo‘lmaydigan davr 204—214 kun davom etib, vegetatsiya davridagi haroratlar

yig‘indisi 5000°C ga yetadi. Bunday iqlimi sharoitda ingichka tolali paxta, shirin-shakar mevalar, poliz ekinlarini yetishtirish mumkin. Okrugda yog‘inlar hudud va fasllar bo‘yicha notejis taqsimlangan.

- C) Okrug tekislik qismining atroflaridagi nisbatan baland joylarda och bo‘z tuproq keng tarqalgan. Adirlarda esa oddiy va to‘q bo‘z tuproqlar uchraydi. Bu tuproq turlari 1200 m gacha bo‘lgan baland joylarda tarqalgan. Ular tarkibida chirindi miqdori 1,5—2,5 foizga boradi. 1200—2500 m balandliklarda tog‘-jigarrang va tog‘-qo‘ng‘ir tuproqlar tarqalgan.
- D) Okrug iqlimi O‘zbekiston tekislik qismidagiga o‘xhash bo‘lib, qishi sovuq, yozi issiq va quruq, yog‘in kam. Okrug janubda joylashganligidan hamda shimol, shimoli sharqdan tog‘lar bilan o‘ralganligidan qishda havo haddan tashqari sovib ketmaydi. Yanvarning o‘rtacha harorati —0,9—1,9°C. Ba’zan Arktika havosi kirib kelganda eng past harorat —24—35°C gacha pasayadi.

16. Qaysi viloyatda neft va gaz quduqlari uchun jihozlar ishlab chiqariladi?

- A) Buxoro
- B) Namangan
- C) Qashqadaryo
- D) Farg‘ona

17. Viloyatda mamlakatimiz aholisining 2,5 foizi yashaydi. Aholi butunligicha sug‘oriladigan hududlarda joylashgan. Yangi yerlarni o‘zlashtirish maqsadida boshqa viloyatlardan ishchi kuchlari jalb etilgan. Endilikda viloyat o‘z ishchi kuchlari bilan to‘liq ta’minlangan”. Ushbu ta’rif mamlakatimizdagi qaysi viloyatga tegishli?

- A) Sirdaryo
- B) Navoiy
- C) Jizzax
- D) Xorazm

18. Osiyo qit’asining qaysi subregionidagi davlatlar suv resurslari bilan yaxshi ta’minlangan?

- A) Sharqiy Osiyo
- B) Janubiy Osiyo
- C) O‘rta Osiyo
- D) Janubi-sharqiy Osiyo

19. Jahonda elektr energiyasi ishlab chiqarish miqdoriga ko‘ra qaysi davlat birinchi o‘rinni egallaydi?

- A) AQSH
- B) Xitoy
- C) Hindiston

D) Rossiya

20. “Dehqonchiligining bosh tarmog‘i donchilik. U, ayniqsa shimoliy viloyatlaridagi lalmi yerlarda yaxshi rivojlangan. Janubiy viloyatlarda dehqonchilik sug‘orish yordamida rivojlantirilib, bu yerda uning asosiy tarmoqlari sabzavotchilik, sholichilik, polizchilik hisoblanadi”. Ushbu ta’rif O‘rta Osiyodagi qaysi davlatga tegishli?

- A) Qирғизистон
- B) О‘збекистон
- C) Туркманистон
- D) Қазақстан

21. Afrikaning qaysi subregioni Sahroyi Kabir va Gvineya qo‘ltiqlari oralig‘ida joylashgan bo‘lib, hududi tropik cho‘llar, savanna, hamda nam ekvatorial mintaqaga to‘g‘ri keladi?

- A) Janubiy Afrika
- B) Shimoliy Afrika
- C) G‘arbiy Afrika
- D) Markaziy Afrika

22. Matnni o‘qing.

“Mamlakatning sharqiy qismi qadimgi platformada joylashgan bo‘lib, asosan, tekislik va kuchli parchalangan yassi tog‘liklardan iborat bo‘lsa, Tinch okeanga tutash g‘arbiy qismi baland tog‘lar bilan band. Hududida uran, temir, nikel, mis, qo‘rg‘oshin, rux, oltin, neft va tabiiy gazning yirik konlari mavjud”.

Matndagi ma'lumotlar qaysi mamlakatga tegishli ekanligini toping.

- A) AQSH
- B) Meksika
- C) Avstraliya
- D) Kanada

23. Matnni o‘qing.

“Subregion Yer shari quruqlik maydoning 3,1 % ni egallaydi; dunyo aholisining 25,4 % ushbu mintaqasi aholisidan tarkib topadi; dunyo bo‘yicha YMM ning 9 % dan ortig‘i shu subregion hissasiga to‘g‘ri keladi. Dunyo okeaniga bevosita chiqish imkoniyatining mavjudligi, uning hududida qadimiy tarixiy markazlarning borligi mintaqasi geografik o‘rnining o‘ziga xos jihatlari hisoblanadi”.

Matnda berilgan ma'lumotlar qaysi subregionga oid ekanligini toping.

- A) Sharqiy Osiyo
- B) Janubiy Osiyo
- C) Janubi-sharqiy Osiyo
- D) Janubi-g‘arbiy Osiyo

24. Yaponiya sanoatiga oid to‘g‘ri ma'lumotlar berilgan javobni toping.

- A) Sanoati yuqori darajada rivojlangan mamlakat. Sanoati eng zamonaviy texnologiyalarga asoslangan tarmoqlar – elektronika, elektrotexnika, dastgohsozlik, kemasozlik, avtomobilsozlik, asbobsozlik, kimyo va neft-kimyo sanoatiga ixtisoslashgan.
- B) Sanoatning tayanch tarmog‘i yoqilg‘i-energetika majmuasidir. Mashinasozlik sanoati ayniqsa, tez rivojlanmoqda. Mamlakatda televizor, maishiy xizmat texnikasidan tortib avtomobil, kompyuter, turli o‘lchov va elektrotexnika mahsulotlarigacha ishlab chiqarilmoqda. Yengil va oziq-ovqat sanoati yetakchi sanoat tarmoqlari hisoblanadi.
- C) Sanoatning eng muhim tarmoqlari avtomobilsozlik, kemasozlik, elektro texnika, elektronika, atom energetikasi, metallurgiya, kimyo va neft-kimyo, yengil sanoati hisoblanadi. Po‘lat, cho‘yan, rux, qo‘rg‘oshinni eritish, avtomobillar va ularning ehtiyyot qismlari, polimer mahsulotlarini ishlab chiqarish bo‘yicha jahoning birinchi beshtaligiga kiradi.
- D) Sanoatining asosini metallurgiya, mashinasozlik va kimyo sanoati tashkil etadi. Ko‘mir va temir rudalari, osh tuzini qazishda, po‘lat, cho‘yan, mis, alyumimiy, sement, ipgazlama, poyabzal ishlab chiqarishda jahon mamlakatlarining birinchi beshtaligiga kiradi.

25. Jamiyatning tabiatga ta’siri ortib borishining qaysi bosqichida tabiat qonunlari ijtimoiy qonunlarga moslashtirilmoqchi bo‘lindi, geoekologik vaziyat inqirozli hududlar va global geoekologik muammolar vujudga keldi?

- A) qishloq xo‘jalik inqilobi
- B) sanoat inqilobi
- C) fan-texnika inqilobi
- D) ekologik munosabatlar

26. Qaysi qit’ada tabiiy o‘sish koefitsiyenti eng yuqori?

- A) Afrika
- B) Amerika
- C) Osiyo
- D) Avstraliya


27. Xristian dinining pravoslav mazhabi qaysi mintaqalarda keng tarqalgan?

- 1) G‘arbiy Yevropa; 2) Shimoliy Osiyo; 3) Shimoliy Amerika; 4) Sharqiy Yevropa; 5) Shimoliy Yevropa; 6) Janubiy Yevropa.
- A) 1, 3, 5
- B) 2, 4, 6
- C) 1, 4, 6
- D) 2, 3, 5

28. “Qadimgi yirik savdo va hunarmandchilik qishlog‘i o‘rnida barpo bo‘lgan shahar. 1929-yilda shahardan temiryo‘l o‘tgach, ishlab chiqarish tez rivojlana boshladi. Sanoati qishloq xo‘jalik xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan”. Ushbu ta’rif qaysi shaharga tegishli?


- A) Denov
- B) Taxiatosh
- C) Bekobod
- D) Kogon

29. Ushbu yozuvsız xaritada Qora va Qizil dengizlar qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 4
- B) 1, 3
- C) 2, 3
- D) 1, 4

30. Ushbu xaritada 1 va 3 raqamlar bilan Afrikaning qaysi tabiat zonalari egallagan hududlar tasvirlangan?



- A) savannalar va fasliy sernam o‘rmonlar
- B) sernam ekvatorial o‘rmonlar va savannalar
- C) savannalar va chalacho‘llar
- D) fasliy sernam o‘rmonlar va chalacho‘llar

31. O‘rta Osiyoning yozuvsız xaritasida Saur va Qirg‘iziston tizmalari qaysi raqamlar bilan tasvirlangan?



- A) 2, 4
- B) 2, 3
- C) 1, 4
- D) 1, 3

32. Ushbu yozuvsız xaritada 2 va 4 raqamlar bilan qaysi daryolar tasvirlangan?



- A) Ala-buka va Moylisuv
 B) G'ovasoy va Pochchaota
 C) Kosonsov va Norin
 D) Sumsar va Chanach

33. Quyidagi jadvalda eralar va ularga tegishli davrlar mos ravishda keltirilgan javobni belgilang.

Nº	Eralar	Variantlar	Davrlar
1	Kaynozoy	a	silur
2	Mezozoy	b	yura
3	Paleozoy	c	neogen

- A) 1-c, 2-a, 3-b
 B) 1-b, 2-a, 3-c
 C) 1-c, 2-b, 3-a
 D) 1-b, 2-c, 3-a

34. Quyidagi tog' tizmalari va ularning eng baland joyi necha metr ekanligini mos ravishda belgilang.

Nº	Tog' tizmalari	Variantlar	Balandligi, metr
1	Nurota	a	2169
2	Bobotog'	b	2336
3	Chaqilkalon	c	2289


- A) 1-c, 2-b, 3-a
 B) 1-a, 2-c, 3-b
 C) 1-b, 2-c, 3-a
 D) 1-c, 2-a, 3-b

35. O'zbekistondagi viloyatlar va ulardagи mavjud tumanlar soni mos ravishda to'g'ri berilgan javobni toping.

Nº	Viloyatlar	Variantlar	Tumanlar soni
1	Samarqand	a	13
2	Farg'ona	b	15
3	Qashqadaryo	c	14

- A) 1-b, 2-c, 3-a
 B) 1-c, 2-a, 3-b
 C) 1-b, 2-a, 3-c
 D) 1-c, 2-b, 3-a

36. Quyidagi rasmda keltirilgan A va B harflar bilan nimalar tasvirlagan?




- A) Toshkentda 22-dekabr (A) va 22-iyun (B) kunlari Quyoshning ufqdan balandlikka qarab issiqligining taqsimlanishi
 B) Toshkentda 22-iyun (A) va 21-mart (B) kunlari Quyoshning ufqdan balandlikka qarab issiqligining taqsimlanishi
 C) Toshkentda 23-sentabr (A) va 22-dekabr (B) kunlari Quyoshning ufqdan balandlikka qarab issiqligining taqsimlanishi
 D) Toshkentda 22-iyun (A) va 22-dekabr (B) kunlari Quyoshning ufqdan balandlikka qarab issiqligining taqsimlanishi

37. Agar 60° g'arbiy uzunlikda 21-yanvar soat 20° bo'lса, 30° sharqiylар uzunlikda qaysi sana va soat necha bo'ladi?

- A) 22-yanvar soat 05°
 B) 21-yanvar soat 14°
 C) 21-yanvar soat 23°
 D) 22-yanvar soat 02°

38. Quyidagi chizmadan foydalanib, Asvon shahridagi o'rtacha yillik haroratni aniqlang.



- A) +26,1 °C
B) +25,7 °C
C) +25,3 °C
D) +24,9 °C

39. Okeandagi cho'kmalardan biriga exolotdan yuborilgan tovush to'lqini 5,152 sekundda yetib borganligi ma'lum bo'lsa, cho'kmaning nomini toping.


- A) Litke
B) Zond
C) Makarov
D) Puerto-Riko

40. "Hududi janubdan shimolga tomon salgina nishab. G'arbiy Sibir hududida uzunchoq, cho'ziq do'ngliklar ko'p. Umuman, o'lka hududining mutlaq balandligi 300 m dan oshmaydi". Ushbu fikrlar Yevrosiyodagi qaysi tabiiy geografik o'lkaza tegishli?

- A) Sharqiy Sibir
B) Old Osiyo
C) G'arbiy Sibir
D) Markaziy Osiyo

41. 2017-yil ma'lumotiga ko'ra ushbu diagrammaning 1-ustunidagi ko'rsatkich

O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar bilan tashqi savdosida eksport ko'rsatkichlari qaysi davlatga tegishli ekanligini aniqlang (umumiy hajmiga nisbatan foiz hisobida)?



- A) Qozog'iston
B) Eron
C) Turkiya
D) Rossiya

42. "Boshqaruv shakli jihatidan parlamentar respublikadir. Siyosiy-hududiy tuzilishiga ko'ra, federativ davlat hisoblanadi. Uning tarkibida 29 ta shtat va 7 ta ittifoqdosh hududlari mavjud. Federatsiya birliklari, asosan, etnik tamoyil bo'yicha ajratilgan". Ushbu ta'rif qaysi davlatga tegishli?

- A) Eron
B) Pokiston
C) Xitoy
D) Hindiston

43. Uzun tumanining aholi zichligi 2015-yil holatiga ko'ra 101,3 kishi/km² ni, maydoni esa 1,63 ming km² ni tashkil qildi. 2015-yil holatiga ko'ra Uzun tumani aholisi qanchani tashkil qilgan?

- A) 161,9 ming B) 165,1 ming
C) 158,7 ming D) 171,3 ming

44. 2018-yil holatiga ko'ra, Ozarbayjon aholisi 9,9 mln kishini, qishloq aholisi 4,3 mln kishini tashkil qildi. Ozarbayjonning urbanizatsiya darajasini toping.

- A) 54,3 %
B) 57,2 %
C) 56,5 %
D) 55,8 %

45. O'zbekiston Shanxay Hamkorlik Tashkilotiga qachon a'zo bo'lgan?

- A) 1998-yil
B) 2003-yil
C) 2001-yil
D) 1996-yil